




**FERGANA STATE
UNIVERSITY**

ZAMONAVIY FALSAFIY TADQIQOTLARDA ILM-FAN, DIN VA MAFKURA MUNOSABATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FALSAFA VA MILLIY G‘OYA KAFEDRASI**

**RESPUBLIKA MA‘NAVIYAT VA MA‘RIFAT MARKAZI
FARG‘ONA VILOYATI BO‘LIMI**

**“ZAMONAVIY FALSAFIY TADQIQOTLARDA ILM-FAN, DIN VA
MAFKURA MUNOSABATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI XLAQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
to‘plami

“Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda ilm-fan, din va mafkura munosabatlari: muammo va yechimlar”– Farg‘ona, 27.11.2025. 355 b.

Mas’ul muharrir:

Ilyosjon Siddiqov – Farg‘ona davlat universiteti falsafa milliy g‘oya kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

Tashkiliy qo‘mita va tahrir hay’ati:

- | | | |
|------------------------|---|---|
| B.Shermuhammado | – | <i>Rais, Farg‘ona davlat universiteti rektori, professor.</i> |
| Y.Axmadaliyev | | <i>rais muovini, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor;</i> |
| H.Jurayev | – | <i>Farg‘ona davlat universiteti tarix fakulteti dekani</i> |
| I.Siddiqov | – | <i>Falsafa va milliy g‘oya kafedrasini mudiri</i> |

13. Капица С.П., Курдюмов С.П., Малинецкий Г.Г. Синергетика и прогнозы будущего Изд. 2-ое. - Москва: Эдиториал УРСС, 2001. - Б. 3-5.
14. Umarov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatleri. - “Tafakkur” jurnali, 2/2007 yil, 16-bet.
15. Сарамгу Ж. Почему я поддерживаю антиглобалистов//Россия в глобальной политике. 2003. - №1. - С.176.
16. Qosimova N. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari. - Toshkent, 2012. 54- 55 betlar.

TA'LIM TIZIMIDA HARBIY MADANIYAT SHAKLLANISHI: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Kaxxarov Siyavush Xudoyor o‘g‘li
NamDU mustaqil tadqiqotchi*

Jamiyat barqarorligi va davlat xavfsizligini ta‘minlashda harbiy madaniyat muhim ijtimoiy-ma‘naviy omil hisoblanadi. Harbiy madaniyat nafaqat Qurolli Kuchlar faoliyatini samarali tashkil etishda, balki yosh avlodni vatanparvarlik, fuqarolik mas‘uliyati va intizom ruhida tarbiyalashda ham alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida ta‘lim tizimida harbiy madaniyatni shakllantirish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Hozirgi zamon jamiyatida yosh avlodni har tomonlama barkamol, vatanparvar va fuqarolik mas‘uliyati yuqori shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda harbiy madaniyatni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, umumta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan “Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim” (ChHT) fani harbiy madaniyatni shakllantirishning asosiy pedagogik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Vaholanki, chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik tizimi bu harbiy madaniyatni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda harbiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Harbiy madaniyat bu shaxsning va jamoaning harbiy sohadagi axloqiy-ruhiy, ijtimoiy-psixologik va amaliy malaka hamda ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. U harbiy xizmatga bo‘lgan munosabat, intizom, vatanparvarlik, mas‘uliyat, jismoniy va ruhiy barqarorlik, shuningdek, harbiy an‘analarga hurmat kabi qadriyatlarni qamrab oladi. S.Xantington harbiy madaniyatni “harbiy kasbning qadriyatlari, me‘yorlari va an‘analari tizimi”³³ deb ta‘riflaydi va uni fuqarolik jamiyati bilan o‘zaro bog‘liq holda rivojlanuvchi ijtimoiy hodisa sifatida baholaydi. Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim fani aynan ushbu qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘quvchilarda Vatanni himoya qilishga tayyorlik, harbiy intizomga hurmat, jamoada harakat qilish ko‘nikmalari kabi sifatlarni shakllantiradi. Shuningdek, M. Yanovis harbiy madaniyat shakllanishini ta‘lim, ijtimoiylashuv va institutsional tarbiya jarayonlari bilan bog‘lab, “armiya jamiyatning ijtimoiy qadriyatlarini o‘zlashtirgan holda faoliyat yuritishi lozim”³⁴ligini ta‘kidlaydi. Bu fikr ChHT fanining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Harbiy madaniyat malakasi – shaxsning harbiy xizmat talablariga mos bilim, ko‘nikma va odatlarni o‘zida mujassam etgan, jamoaviy hamkorlik va intizomga asoslangan murakkab ijtimoiy-psixologik xususiyatlar yig‘indisidir. Unda harbiy etika, tartib-intizom, rahbariyat buyruqlariga og‘ishmay itoat etish, jismoniy va ruhiy barqarorlik, stressga chidamlilik, favqulodda holatlarda qaror qabul qilish va jamoaviy mas‘uliyat tuyg‘usi asosiy o‘rin tutadi. Bundan tashqari, “harbiy madaniyat malakasi yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirib, armiyadagi xizmat jarayonlariga ma‘suliyat bilan yondashishni ta‘minlaydi. Bu malaka nafaqat harbiy xizmat davomida, balki fuqarolik hayotida ham intizomlilik, mas‘uliyatlilik va fidoyilikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi”³⁵. Uning shakllanishi tizimli ta‘lim, jismoniy mashg‘ulotlar, ruhiy tayyorgarlik va harbiy an‘analarga sodiqlik orqali amalga oshadi.

Yoshlarda harbiy madaniyat malakasini shakllantirishni samarali amalga oshirish uchun kompleks metodika ishlab chiqishni talab etadigan jarayon hisoblanadi.

Harbiy madaniyatning shakllanishiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatadi: milliy tarix va harbiy an‘analari; davlatning mudofaa siyosati; ta‘lim va tarbiya tizimi; ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muhit.

³³ Huntington S. P. The Soldier and the State: The Theory and Politics of Civil–Military Relations. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1957. — 534 p.

³⁴ Janowitz M. The Professional Soldier: A Social and Political Portrait. — New York: Free Press, 1960. — 418 p.

³⁵ Мамуров У.И. Формы и методы военно-патриотического воспитания // Вестник науки и образования. Част 2. № 22 (100), 2020. С. 43-46.

Ta'lim tizimi harbiy madaniyatni shakllantirishning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, harbiy-vatanparvarlik ta'limi yoshlarda fuqarolik burchi, jamoaviylik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi³⁶. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani faqat harbiy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay, balki tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Pedagogika nuqtai nazaridan, harbiy madaniyat quyidagi vazifalarni bajaradi: intizom va huquqiy ongni shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, ekstremal holatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Ta'limda harbiy madaniyatni joriy etish umuminsoniy qadriyatlar va gumanistik tamoyillar bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim. Bejis o'z davrida A.Makarenko "intizom zo'raonlik emas, balki ongli mas'uliyat natijasi ekanligi, agar u ongli tarbiya natijasi bo'lmasa, u barqaror bo'la olmasligini" ta'kidlamagan. Yoshlarda fuqarolik va vatanparvarlik ongini rivojlantirish, qonun va harbiy ustavlarga hurmat ruhini shakllantirish hamda ekstremal vaziyatlarda o'zini tuta bilish ko'nikmalarini oshirish masalasi aynan ChHT fanining harbiy madaniyatni shakllantirishdagi asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi³⁷ning 64-moddasida Vatanni himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligi belgilab qo'yilgan. Mazkur norma chaqiriqqacha harbiy ta'lim orqali yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishning huquqiy asosi hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni³⁸da ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida yosh avlodni vatanparvarlik, fuqarolik va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash belgilangan. Bu esa ChHT fanining ta'lim tizimidagi ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini huquqiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, "Mudofaa to'g'risida"gi Qonun³⁹ va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikni tashkil etishga oid qarorlari⁴⁰da umumta'lim muassasalarida chaqiriqqacha harbiy ta'limni amalga oshirish davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu hujjatlarda ChHT fani yoshlarni Vatan himoyasiga ma'naviy va axloqiy tayyorlashga qaratilgan tizim sifatida belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani harbiy madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'limiy-tarbiyaviy tizim hisoblanadi. Ushbu fikr O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy normalari, ta'lim va mudofaa sohasidagi qonunlari hamda pedagogika nazariyasi bilan to'liq asoslanadi. ChHT fani orqali yoshlarda harbiy madaniyat bilan bir qatorda ijtimoiy faollik, fuqarolik ongi va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi shakllanadi.

Hozirgi kunda amaliyotda ta'lim tizimida ChHT fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgan holatlar, harbiy madaniyatni shakllantirishga oid muammolar mavjud. Masalan, ayrim hollarda fan mazmuni texnik yoki jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib, pedagogik jihatlar etarli darajada ochib berilmaydi. Jumladan, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish, o'quv dasturlarida zamonaviy harbiy-pedagogik yondashuvlarning etishmasligi, o'qituvchilarning zamonaviy harbiy-pedagogik metodikalardan to'liq foydalanmasligi kabilar.

Birinchiidan, mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim dasturlariga harbiy madaniyatning ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini chuqur integratsiya qilish, harbiy-pedagogik kompetensiyalarini kuchaytirish hamda milliy tarix va qahramonlik an'alarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, eng muhimi yoshlarda ongli intizom va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan interaktiv mashg'ulotlarni ko'paytirish kerak bo'ladi.

Ikkinchiidan, ilmiy asoslangan, tizimli va gumanistik yondashuv orqali ta'limda harbiy madaniyatni rivojlantirish yosh avlodni har tomonlama etuk shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qilar ekan, demak, harbiy madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'limiy-tarbiyaviy tizimni mustahkamlash, ChHTga nafaqat harbiy bilimlar beruvchi, balki o'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyat, intizom va fuqarolik burchi ruhida tarbiyalashga qaratilgan tizim sifatida qarash kerak bo'ladi.

Uchinchiidan, ushbu fan mazmunini yosh avlodni Vatan himoyasiga ma'naviy va axloqiy jihatdan tayyorlashga xizmat qiluvchi, jamiyatda qabul qilingan harbiy-axloqiy qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy

³⁶. Qarang: Davletov B. "Harbiy-pedagogik asoslar", 2018; Satib-Aldiev A., Karimjonov A. Harbiy-pedagogika. T.: Sharq, 2005. – 255 b; Holiqova D. Harbiy pedagogika va psixologiya asoslari. Qo'llanma, 2019; Norqulov A. Harbiy pedagogikaning maqsadi va vazifalari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 18; Lixanov V.O. Harbiy pedagogikaning metodologik asoslari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 6, Issue 06, October(2023).

³⁷O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023.

³⁸ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. Toshkent sh., 23.09. 2020. O'RQ-637-son.

³⁹ O'zbekiston Respublikasining Mudofaa to'g'risidagi (yangi tahriri) Qonuni. <https://lex.uz/docs/108083>.

⁴⁰ Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6657073?ONDATE=04.11.2025>.

xulq-atvor modellarini o'z ichiga olgan harbiy madaniyat komponentlarini bilan muntazam ravishda boyitib borish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. Toshkent sh., 23.09. 2020. O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa to'g'risidagi (yangi tahriri) Qonuni. <https://lex.uz/docs/108083>.
4. Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6657073?ONDATE=04.11.2025>.
5. Davletov B. "Harbiy-pedagogik asoslar", 2018.
6. Janowitz M. The Professional Soldier: A Social and Political Portrait. — New York: Free Press, 1960.
7. Lixanov V.O. Harbiy pedagogikaning metodologik asoslari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 6, Issue 06, October(2023).
8. Мамуров У.И. Формы и методы военно-патриотического воспитания // Вестник науки и образования. Част 2. № 22 (100), 2020.
9. Norqulov A. Harbiy pedagogikaning maqsadi va vazifalari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 18.
10. Satib-Aldiev A., Karimjonov A. Harbiy-pedagogika. T.: Sharq, 2005.
11. Huntington S. P. The Soldier and the State: The Theory and Politics of Civil–Military Relations. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1957.
12. Holiqova D. Harbiy pedogogika va psixologiya asoslari. Qo'llanma, 2019.

RAQAMLI JAMIYATDA KIBERJINOYATLARNI OLDINI OLIISHDA AXLOQIY TAFAKKURNING ROLI

Baxromov Saidolimxon Saydalixon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya: Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida axborot xavfsizligi va kaberjinoatlarni oldini olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot makonini himoya qilish, kiberxavflarga, dezinformatsiyaga va jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishga qarshi kurashishda turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Har bir davlat siyosiy sharoit, texnologik rivojlanganlik darajasi va milliy manfaatlardan kelib chiqib o'z strategiyalarni ishlab chiqadi va moslashtiradi, bu esa axborot xavfsizligini ta'minlashda kompleks va moslashuvchan yondashuv zarurligini anglatadi. Shu ma'noda xavfsiz milliy kiber makonni yaratish bo'yicha bu tahdidlarga qarshi kurashish, ushbu jarayonda insonda axloqiy tafakkurni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot asri, globallashuv, axborot-huquqiy siyosat, axborot xavfsizligi, mafkuraviy tahdid, dezinformatsiya, jamoatchilik fikrini boshqarish, ommaviy madaniyat, diniy ekstremizm, kontent monitoringi, media savodxonlik.

Bugungi kunda axborot xavfsizligining ahamiyati so'nggi o'n yilliklarda, ayniqsa raqamli texnologiyalar va globallashuvning rivojlanishi bilan sezilarli darajada oshdi. Jamiyatda axborot tizimlari va muhim infratuzilma ob'ektlari himoyasini ta'minlash, kiberhujumlarga qarshi kurashish, barqaror raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni talab etmoqda. Axborot xavfsizligi deganda davlat va jamiyatning dezinformatsiya, kiberxavflar va barqarorlikka tahdid soluvchi destruktiv mafkuralarga nisbatan qarshi tura olishi tushuniladi. Jahonda Kiberxavfsizlik strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadi kiberhujumlarga qarshi mudofaani kuchaytirish, inqirozga tayyorlikni oshirish va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida jamoaviy sa'y-harakatlarni kuchaytirishdan iborat. Strategiyaning asosiy elementlari axborot almashinuvini yaxshilash va davlat va xususiy tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirishdan iborat. Kiberxavfsizlik strategiyasini amalga oshirishda jahonda muhim moliyaviy xamkorlik doirasida 2023 yilda Yevropa Ittifoqi kiberxavfsizlik uchun taxminan 2–3

	<i>tushuncha</i>	
<i>Salmonov A.A</i>	<i>Yoshlarni axloqiy-tarbiyalash inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy asosi</i>	<i>299-304</i>
<i>Xudoyberganova D.O.,</i>	<i>Axborotlashgan jamiyatda virtual reallik ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida</i>	<i>305-307</i>
<i>Tojiboyev S. P. Abduqahhorova O‘</i>	<i>Jamiyat barqarorligi - ma'naviy barqarorlik timsolida</i>	<i>307-309</i>
<i>Karimov Oybek Mo'minjon o'g'li</i>	<i>Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar</i>	<i>309-312</i>
<i>Tojiboyev S.P.</i>	<i>Rahbar kadrlaridagi boshqaruv madaniyatining shakllanishi va uning falsafiy jihatlari</i>	<i>312-314</i>
<i>Karimov O. M.. Egamberdiyeva D. A.</i>	<i>O'zbekiston respublikasida majburiy mehnatni oldini olishga qaratilgan huquqiy islohatlar</i>	<i>314-315</i>
<i>Xoliqulov M.Q.</i>	<i>O'zbekistonning sivilizatsion taraqqiyot yo'li: milliy qadriyatlar, globalizatsiya va fuqarolik jamiyati shakllanishining dolzarb masalalari</i>	<i>316-318</i>
<i>Azimov O. M.</i>	<i>Ekoestetik tushunchasi va uning yoshlar ongida aks etishi</i>	<i>318-319</i>
<i>Evatov B.S.</i>	<i>Axborotlashgan davrning ijtimoiy va ma'naviy jarayonlari tahlili</i>	<i>320-321</i>
<i>O'sarqulov O.</i>	<i>Polietnik jamiyatda diasporalarning o'rni va ahamiyati</i>	<i>321-323</i>
<i>N.A.Nuriddinov</i>	<i>Zamonaviy huquqiy bilish metodologiyasi rivojida tanqidiy tafakkurning roli</i>	<i>323-324</i>
<i>Evatov B.S.</i>	<i>Raqamli madaniyatning falsafiy mazmuni</i>	<i>325-326</i>
<i>Evatov B.S.</i>	<i>Raqamli sivilizatsiyaning ma'naviy-falsafiy mazmuni</i>	<i>326-328</i>
<i>Mamatov T. O.</i>	<i>Yoshlar ongini manipulyatsiya qilishga qaratilgan axborotlar va bunday tahdidlar tajovuzlaridan yoshlarni himoyalash</i>	<i>329-332</i>
<i>Baxromov S. S.</i>	<i>Raqamli jamiyatda kiberjinoyatlarni oldini olishda axloqiy tafakkurning roli</i>	<i>332-336</i>
<i>Kaxxarov S.X.</i>	<i>ta'lim tizimida harbiy madaniyat shakllanishi: muammo va yechimlar</i>	<i>336-338</i>
<i>Yuldasheva N. B.</i>	<i>Raqamli jamiyatda yoshlar axloqiy barkamolligi masalasiga doi</i>	<i>338-340</i>
<i>Teshaboyeva Sh. B.</i>	<i>Ma'naviy makonning inson kamolotidagi o'rni</i>	<i>340-343</i>
<i>Ismoilova Sh. Z.</i>	<i>Jadid milliy tafakkuri ta'limotining zamonaviy progressiv xususiyatlari</i>	<i>343-345</i>
<i>Ermatova S.A.</i>	<i>Yangi O'zbekistonda "davlat inson uchun tamoyili" ning ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rni</i>	<i>345-348</i>
<i>Asabillayeva M.I</i>	<i>Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlar</i>	<i>348-350</i>
<i>Abbasov A.M.</i>	<i>Zamonaviy falsafada texnologiya va axloq muammosi</i>	<i>350-352</i>
<i>Rasuljonova M. B.</i>	<i>Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri: falsafiy va psixologik tahli</i>	<i>353-355</i>
<i>Mo'sajonova G.</i>	<i>Milliy uyg'onish va jahon taraqqiyoti yo'liga kirish g'oyalari</i>	<i>356-359</i>